

Toshkent davlat tibbiyot universiteti talabasi
Turg’unpo’latova Muqaddam Qodirjon qizi

Annotatsiya: *Shoira Zulfiyaning poetik timsol yaratish maxorati she'rlari tahlili orqali oydinlashtiriladi. Zulfiya she'rlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, she'rlarining ruhi va ohangini, mazmuni va yo'nalishini, avj pardasini, maqsad, g'oya va ideallarini umuminsoniy fikr va tuyg'ular belgilaydi. Shu ma'noda, Zulfiya ijodining haroratini ta'minlagan omil ham undagi jo'shqin va faol insonparvarlik, poetik timsol, go'zal tuyg'ular olamidir. Zulfiya lirikasi teran tafakkur va jo'shqin hissiyot vobastaligidan hosil bo'lgan she'riyatdir. Maqolada shoira she'riyatining aynan shu jihatlari o'z ifodasini topgan.*

Kalit so'zlar: *lirik kechinma, qahramon tabiati, mavzu ko'lami, obrazlar olami, poetik timsol, mavzu, g'oya, mahorat, maqsad, san'at.*

Zulfiya tomonidan yaratilgan asarlarida realistik tasvir tamoyillari kuchayganligi hamda poetik obrazlar olami kengayganligini ko'rsatadi. O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolaridan biri san'atkorning o'ziga xos, betakror badiiy olamini o'rganish bo'lib, bu masalaning teran atroflicha tadqiq qilinishi yozuvchining individual mahoratini ko'rsatishga, uning adabiyotimiz taraqqiyotidagi o'rnini belgilashga xizmat qiladi. Zulfiyaning poetik fikrlash tarzini jiddiy o'rganish, uning asarlaridagi obraz va obrazlilikning tabiati, xarakterini yana ham to'laroq ochish o'zbek she'riyatidagi katta bir turkum asarlar mohiyatini tushunishga imkon beradi.

Zulfiya she'riyati, shoiraning poetik timsol yaratish, shoira badiiy olami borasidagi mahoratini N.Karimov, I.G'afurov, A.Akbarov, O.Sharafiddinov, H.Umurov, O.Hojieva, M.Ulug'ova, N.Jabborov, D.To'raev kabi adabiyotshunos olimlarimiz, ijodkorlarimiz alohida ta'kidlaganlar va Zulfiya ijodiga yuksak baho berganlar.

Zulfiya she'riyati hissiy ta'sirchanligi, tuyg'ulari rozining originalligi, mushohada va ifoda tarzining o'ziga xosligi bilan betakrordir. Ayniqsa, ijodining umumbashariyligi va zamonaviyligini, asarlarida sadoqatu vafo tuyg'ulari insoniylikning bosh mezonini darajasiga ko'tarilganligini kashf etish hamon dolzarbdir. Zulfiya yangi davr ayollar she'riyatining manshaida turib XX asr o'zbek adabiyotining ayol shoiralari poetik maktabini yaratdi. H.Xudoyberdieva, O.Hojieva, G.Jo'raeva, E.Oxunova va yana boshqa ko'plab shoiralar Zulfiya ijodining davomchilari sanaladilar

Shuningdek, shoira Zulfiya ijodida ayolga extirom, onaga muhabbat mavzusi alohida o'ringa ega. Zulfiya ijodining turli davrlarida bu mavzuga qayta-qayta murojaat etgan. Natijada shoiraning "Ona", "Ona ko'ksi", "Mening mehribon onaginam", "Ona ko'ksi" singari she'rlari vujudga kelgan. Shoiraning:

Onam! sening issiq, aziz joningni,
Zarradek chog'imdan boshlab bilaman.
O'zim zarra-yu, lekin qoningni,
Yangilab jismingdan o'zni o'zganman.

Sen gul juvon hali mendan bexabar,
Bulutday go'daklar tortdi havasing.
Endi men sen desa qaynoq, muattar,
Hovrin his qilaman iliq nafasing...

Ona va farzand muhabbatini, ayollikning botiniy va zohiriy qiyofasini ochib beruvchi lirik kechinmalar shoira ijodida talaygina.

Zulfiya shoiralik faoliyatida asosan lirika janrida ijod qilgan. Uning "Bahorim", "Yoshlar uchun", "Ona" kabi she'rlari, ayniqsa yosh avlodning qalbiga chuqur ta'sir ko'rsatgan. Shoira o'zining "Ona" she'rida ona sevgisi, ona ta'limi va ona vatanining ezgu tushunchalarini yuqori darajada ifodalagan.

Zulfiya nafaqat o'zbek adabiyotining, balki butun jahon madaniyatining ajralmas qismiga aylandi. Uning asarlari bugungi kunda ham o'qilmoqda va yosh ijodkorlar uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Zulfiya o'z she'rlari bilan qadimdan zamonamizgacha bo'lgan insoniyat qadriyatlarini, ijtimoiy adolat va tinchlikni targ'ib qilgan.

Shu bilan birga, Zulfiya hayoti va ijodi o'zbek ayollarining ijtimoiy-siyosiy huquqlari yo'lidagi kurashning yorqin timsolidir. Uning she'rlari va faoliyati nafaqat adabiyotda, balki jamiyatda ham salmoqli o'rin egallaydi.

XULOSA

Shoiraning tarjimonlik faoliyati ham o'zbek tilini boyitib, jahon adabiyotining eng yaxshi namunalari bilan o'zbek o'quvchilarini tanishtirgan. Zulfiya nafaqat adabiyotda, balki ijtimoiy hayotda ham ayollarning teng huquqlilik yo'lidagi kurashning yorqin timsoli bo'lib qoladi. Uning ijodi bugungi kunda ham o'qilishi, o'rganilishi va yosh ijodkorlar uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zulfiya. Tong bilan shom aro. Saylanma. - Toshkent: SHarq, 2006. 168-b.
2. Mahmudova D. Halima. esse-qissa. Toshkent, "O'zbekiston", 2016.
3. G'afurov I. Zulfiya siymosi // SHarq yulduzi, 2015, №1. - B. 114-120.
4. SHarafiddinov O. Sizni sog'indim, Zulfiya opa! - Ijodni anglash baxti. - T., SHarq, 2004.
5. Hojiev O. To'rt tanho. Toshkent, "O'zbekiston", 2013.